

## BORLIQNI BILISH VA IDROK QILISHDA TILNING ROLI

**Mo'minova Xulkaroy Abduhamid qizi**

*Farg'ona davlat universiteti lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi magistranti*

**Sabohatxon Yusupova**

*FarDU Chet tillari, katta o'qituvchi*

**Abstrakt:** Maqolada borlijni bilish va idrok qilishda tilning rolini yoritish, tilda bilim tasavvuri tuzilmasi va uning turlari haqida so'z boradi. Shuningdek, tilning kommunikativ jarayonni ta'minlashi qanday yuz berishi ma'lum bir darajada yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** sezgi, tushuncha, idrok, bilish, tafakkur, borliq, kognitiv tilshunoslik, dunyoqarash, ong.

### Asosiy qism

Insoniyat bilan birqalikda vujudga kelgan til uning hayotida eng muhim rol o'ynab kelgan va bundan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Til, avvalo, inson tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq bir nutqning paydo bo'lishi insonning bilish, idrok qilish jarayonlarini tamoman o'zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ong orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, obyektiv borliqqa doir fikrlarini so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi. Dunyodagi har bir til borliqning o'ziga xos shakli bo'lib, bu shaklda shu tilda firklovchi va muloqot qiluvchi shaxsning dunyo va o'zi haqidagi bilimi, shuningdek, bilish faoliyati namoyon bo'ladi. Shu sababdan ham zamonaviy tilshunoslikda kognitiv tilshunoslik deb atalgan yangi yo'nalish paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning o'rganish manbai bilim va bilishning tabiatini va mohiyati bo'lsa, o'rganisg predmeti tilning bilim hosil qilish, undan foydalanish, saqlash, uzatish va uni qayta ishlashning umumiylarini mexanizmi sifatidagi hossalaridir va shunga ko'ra uning vazifalari belgilanadi. Misol uchun, ulardan biri har hil bilim turlari haqidagi tasavvur tuzilmasini, nutq hosil qilish va qabul qilish jarayonida bilimi anglash usulini tadqiq qilish bo'lsa, boshqa bir vazifasi insonning til bilish mexanizmi va uning tuzilish tamoyillarini tushuntirish va sistemali tavsiflash hisoblanadi. Bunday tekshirishda tilda namoyon bo'luvchi bilim o'ziga xos obekt sifatida tanlanishi beziz emas. Chunki bilim – inson ongida borliq belgi va xossalarning aks etish natijasi bo'lgan kognitiv qurilish asosidir. Tilda inson tafakkuri asosida yotuvchi va milliy madaniyat mohiyatini aks ettiruvchi barcha kognitiv kategoriylar mavjud. Bu kategoriylar insonda tug'ma holda mavjud emas, balki uning til va borliq bilan muloqoti natijasida yuzaga keladi, ya'ni, inson tafakkuri, dunyoqarashi, bilimi til vositasida ifodalanadi. Modomiki, inson ko'pincha borliqning o'zi bilan emas, balki uning ko'rinishlari, kognitiv kartina va qoliplari bilan ish ko'rар ekan, demak, unda borliq xalq tili va madaniyati orqali namoyon bo'ladi.

Hech shubhasiz, bunda til dunyoni milliy tabiatiga, mentalitetiga xos yo'sinda anglash, bilim olish vositasiga aylanadi.<sup>1</sup>

Ma'lumki, hali tili chiqmagan go'dak hech qachon birichi tug'ilgan kuning o'zidayoq o'z ona tilida gapirib keta olmaydi. Uning nutqi bir necha oylar, bir necha yillar ichida asta-sekin shakllanib boradi. U dastlabki til ruhiyatini o'z onasi tili va uni allalaridan oladi. Alla bilan orom olish bilan birga uni ruhiyatiga milliylik kiradi. Bundan kelib chiqadiki, bolani dunyoga milliy ko'z bilan qarashdagi ilk ko'nikmalari oilada shakllanadi. Til haqida nemis tilshunosi Vilgelm fon Gumboldt shunday deydi: "Tillarning hilma-hilligi faat tovushlarning turlichaligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko'rishning farqliligi natijasidir"<sup>2</sup>. Agar chuqurroq o'y lab qaralsa, har bir millatning o'ziga xos qarashi, o'ziga xos idrok tizimi, o'ziga xos tafakkur tamoyili bor. Amerika tilshunosi Benjamin Li Uorf "Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o'ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo'lardi"<sup>3</sup>, degan edi. Til va tafakkur o'zaro ajralmasdir. Til ham tafakkur ham mehnat jarayonida jamiyatda shakllangan. Til birliklari – fonema, morfema, so'z, gap, mantiqiy tushunchalar(his, sezgi, tafakkur) bilan uzviy bog'liqdir.<sup>4</sup>

**Sezgi** dunyoni in'ikos etishning boshlang'ich shakli, bilishning qadimiy faol usulidir.

**Idrok qilish** – hissiy bilishning murakkabroq shakli bo'lib, u sezgi a'zolariga bevosita ta'sirkor satuvchi buyumni yaxlit holda aks ettiradi. Miya inson idrok qilgan narsani o'z xotirasida saqlab qolish va uni qayta tiklash xususiyatiga ega.

**Tushuncha** hodisalarining ongda aks etgan eng muhim qonuniy aloqalari, muhim tomonlari va belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli sanaladi.

**Hukm** borliqdagi narsa, hodisa, jarayonlarni, ularning xususiyati aloqa va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli bo'lib, u gaplarda o'z ifodasini topadi.

Til o'zining xususiyati bilan insonga bilim egallash, uni saqlash, avloddan avlodga uzatish, to'plagan bilimlaridab hayotda unumli foydalanishga yordam beradi. Shu bilan birga u insonga takakkurini takomillashtirish, mavhumlashtirish, umumlashtirish va juz'iy lashtirish qurolidir.<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Mamatov A. E Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? /O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari (prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy anjuman materiallari. - A-dijon, 2012. – B. 212-220.

<sup>2</sup> Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik. – T., 2010 –B87.

<sup>3</sup> Березин Ф.М., Головин Б.Н Общее языковознание. –М.:Просвещение, 1979.

<sup>4</sup> Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – T., 2020.

<sup>5</sup> Nurmonov A. Immanentlikdan kognitivlikka // O'zbek tili va adabiyoti. – 2009. – B. 104-107.

## ADABIYOTLAR:

1. Mamatov A. E Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? /O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari (prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy anjuman materiallari. - A-dijon, 2012. – B. 212-220.
2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T., 2010 –B87.
3. Березин Ф.М., Головин Б.Н Общее языкоzнание. –М.:Просвещение, 1979.
4. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – T., 2020.
5. Nurmonov A. Immanentlikdan kognitivlikka // O'zbek tili va adabiyoti. – 2009. – B. 104-107.
6. Yusupova, S. (2022). ИЖТИМОЙ ГУРУХЛАРДА ҲУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ ИФОДАЛАШ. Science and innovation, 1(B5), 350-352.
7. A'zamjonovna, Y. S. (2022). INGLIZ TILIDA EMOTSIYALARING GRAMMATIK IFODALANISHI. PEDAGOGS jurnalı, 20(2), 65-68.
8. To'lanboyeva, G., Yusupova, S., & Mirzayeva, D. (2022, November). CULTURE AND LINGUISTICS. RELATIONSHIPS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 6, pp. 82-88).
9. M. Axunova, & S. Yusupova (2022). SON KATEGORIYASINING QO'LLANILISHI VA UNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QIYOSLANISHI. Science and innovation, 1 (B7), 736-739.
10. G. Tolanboyeva, & S. Yusupova (2022). LINGVOKULTUROLOGIYA O'RGANILISH TARIXI. Science and innovation, 1 (B6), 540-543.
11. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИ ТИПОЛОГИЯСИДА ҲУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).
12. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИДА ҲУРМАТ ИФОДАЛАШНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).
13. Sabohatxon, Y., Zilolaxon, T. Y., & Shaxlo, Y. L. (2022). EXPRESSION OF METAPHOR IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES. RESEARCH AND EDUCATION, 1(2), 209-212.
14. A'zamjonovna, Y. S. (2022). GARRI POTTER HIKOYASIDA ME'MORCHILIK. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1103-1104.

15. Maftuna Erkin qizi, J., Kamilla Andreyevna, P., Sabohat A'zamjonovna, Y., & Farhod Faxriddinovich,U.(2022). MEDIA DISCOURSE FEATURES. Scientific Impulse, 1(3), 561–565.

16. Odilova Mavluda To'Lqinjon Qizi, & Yusupova Sabohatxon A'Zamjonovna (2022). JAMAL KAMAL'S TRANSLATION OF SHAKESPEARE'S WORKS. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (12), 101-104.

